


## Bino plani

Asosiy qurilish chizmachiligiga-bino yoki inshootni chizmada tasvirlash, ya'ni planlash, qirqimlar va fasadlar bosh planlar kiradi.

Planlar: binoning deraza tokchasidan bir oz yuqorida o'tgan gorizontal qirqim bino qavatining plani deyiladi.Qavatlarning planiga qarab xonalr eshik va derazalarning o'lchamlari hamda joylashuvi devorlarning qalinligi va boshqalar haqida fikr yuritish mumkin.Qirqimga tushgan devorlar shtrixlanadi.tashqi va kapital ichki devor va kalonalarining kesuvchi tekislikka tushgan kon turi asosiy chizig' bilan tasvurlanadi.Kesuvchi tekislikka tushmagan xonalar orasidagi parda devorlar eshik va derazalar kon turi esa ingichka tutash chiziq bilan tasvirlanadi.Deraza eshik darvoza va binolarning binolarning boshqa eleventlarini chizishda shartli standart grafikaviy belgilardan foydalaniladi.bu belgilar deraza , eshik va darvozalarning qaysi tomonga ochilishini ko'rsatadi. (1-chizma)



Qavatlar planlarida dush, vanna va shunga o'xshash sanitariy –texnika jihozlar o'rnatiladigan xonalar sanitariya- texnika asboblari ko'rsatiladi, bular shartli grafikaviy belgilar bilan tasvirlanadi.

Konstruksiya elementlari chizmalarida ustunlar va devorlar bo'lувчи о'qlar deyiladi. Planlar binodagi devor va pag'onalarining joylashuvini aniqlovchi-bo'lувчи о'qlarni chizishdan boshlanadi. Masalan 1-4

Bo'lувчи о'qlar orasidagi masofalar yagona modul sistemasidan olinadi va 100 mmga teng asosiy modul Mga karrali bo'ladi. Bo'lувчи о'qlar qadamlar 200,

300, 500, 1200, 1500, 3000, va 6000 mmga teng va mos ravishda 2M, 3M, 5M, 12M, 15M, 30M, 60M bilan belgilangan, yiriklashtirilgan modullar ham ishlatiladi.

O'lchamlar modul sistemasi qurulishida planlashtirish va standartlashtirishga imkon beradi. Bo'luvchi o'qlar belgisi planning pastki va chap tomonlariga chiqariladi. Binoning ko'ndalang joylashgan o'qlari chapdan o'nga qarab raqamlar bilan belgilanadi. Binongning balandligi bo'yab joylashgan o'qlari esa rus alfaviti harflari bilan pastdan yuqoriga qarab belgilanadi.

**Qirqimlar:** qurulish chizmalarida vertical va gorizontal qirqimlarning oddiy va murakkab turlari chiziladi. Konstruksiya detallarini mumkin qadar mukammal aks ettirish uchun kesuvchi tekslifni binoning xarakterli joyidan o'tkazish kerak.

Qirqimda ko'proq vertical o'lchamlar masalan eshik va derazalarining balandligini ko'rsatish lozim. binoning hamma konstruksiyalarini uning bitta qirqimi bilan to'la ko'rsatish qiyin, shuning uchun har bir bino planiga bir necha qirqim beriladi konstruksiyalari murakkab bo'lgan binolaridan bo'ylama qirqim chiziladi bunda eshik deraza pechka va zinalar aniq korsatilishi kerak.

**Bosh plan:** asosiy loyiha hujjat bo'lib unda ob'yeqt teritoriasining o'lchamlari va konfiguryasining, mavjud yoki loyihalanadigan bino hamda inshootning joylashuvi va gabaritlari sanitaria himoya zonalarining joylashuvi teritoriyalarining obodonlashtirilganligi ko'rsatiladi. Korxonaning bosh plani chizmasi rayon qurulish ob'yeqtartining planlashtirish chizmalarini bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Bosh plan chizmasining yuqorigi chap tomonidan strelka va harflar bilan ko'rsatiladi daryo suv oqimining yo'nalishi shamollarning esishi yo'nalishi ko'rsatilishi hamda chiziqli masshtab bo'lishi kerak bosh plan chizmalarining chizishda ob'yeqt elementlarining standart shakli tasvirlangan foydalanish kerak masalan bosh planda mavjud bo'lgan korpuslar asosiy tutash chiziq bilan loyihalanadigan binolar yoki yoniga taqab quriladigan inshootlar ingichka tutash chiziqlar bilan buziladigan turar joy binosi esa krestchalari bo'lgan yo'g'on tutash chiziq bilan tasvirlanadi bosh plandagi ob'yeqtlar eksplikatsiyada ob'yeqtning tartib nomeri yuqoridan pastga qarab uning nomi ko'rsatilgan holda joylashtiriladi.

Bosh planda tasvirlanayotgan bino yoki inshootlarning o'lchamlari katta bo'lganligi sababli 1: 200, 1:400,1:1000 vahokazo masshtablidan foydalaniladi.

Binoni ichki xonalarini, zinapoya katagini joylashishi va eshik, derazalarini o'rnini va ularni o'lchamini, shuningdek xona jihozlarining joylashuvini bilish uchun bino plani ko'rsatiladi.

Plan - binoni deraza va eshiklarini sathida gorizontal tekislik bilan qirqilgan va qirqim osti tasviri ko'rsatilgan ko'rinishga aytildi yoki binoni asosiy loyihasi deyiladi.(2- chizma).

GOST 21.501 - 80 ga asosan binoning balandligiga nisbatan 1q3 qismidan yoki poldan 1 metr balandlikda kesuvchi tekislik o'tkaziladi.

Planda nima tasvirlanishiga qarab bir necha turga bulinishi mumkin. Agar biz binodagi xonalar joylashishini ko'rsatmokchi bo'lsak, u holda asosiy va yordamchi devorlar, shuningdek eshik va derazalar o'rni, hamda ko'p qavatli binolar uchun zinapoya katagi ko'rsatiladi. Bu chizma qavat plani deb aytildi.


Ko'p qavatli binolar uchun, masalan, 1- qavatdan boshqasi bir xil bo'lsa, tipaviy qavat plani yoki 2-5 qavat plani deb ko'rsatish kifoya. Chizmada planni ustida "plan", "1- qavat plani"yoki "tipaviy qavat plani" deb belgilanadi. Agar formatdagi chizmalar bir xil masshtabda bo'lsa, asosiy yozuvda masshab belgilanadi, aks holda "plan" yozuvidan keyin uning masshtabi yozib qo'yiladi.

Agar orayopma yoki ustyopma planini ko'rsatmoqchi bo'lsak, unda asosiy devorlar va plitalarning joylashuvi, markalari, monolit qilinadigan qismlari ko'rsatiladi. Shuningdek spetsifikatsiya tuzilib, plita to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi, har qavatdagi markalari bo'yicha ularning soni keltiriladi.


Planda ustunlar o'rni, asosiy devor va zinapoyaning chiqish yo'lagi ko'rsatiladi. Ayniqsa, ular haqida etarli o'lchamlar bo'lishi kerak.

Odatda ko'rinxaydigan konstruktiv elementlar planda ko'rsatilmaydi. Agar boshqa chizmalarda shu elementni ko'rsatish iloji bo'lmasa, unda uni planda shtrix chiziq bilan ko'rsatiladi. Bunda tasvirlangan element kesuvchi tekislikdan pastda (isitish batareyalari) yoki yuqorida (antresollar) bo'lishi mumkin (41-chizma). Planda sanitary texnik jihozlar (vanna, unitaz, rakkovina va h.z.) plan masshabida

Binoning yuqori  
qismi olib tashlangan



Plan




Plan


2-chizma

Chizma


1-qavat



M 1:100



4-chizma



5-chizma


chiziladi. 4-chizmada juda ko'p qo'llaniladigan sanitary texnik jihozlarning o'lchamlari berilgan.

Turar joy va lamoa binolarida mebel va boshqa jihozlarning joylashishi ham ko'rsatilishi mumkin.

Texnologik jihozlarni joylashtirish plani alohida berilishi mumkin. U holda plan konturi yordamchi chiziqlar bilan 0.2-0.3mm, jihozlar esa 0,6 mm qalinlikda chiziladi. Qurilish qismiga taaluqli to'liq o'lchamlar, grafik belgilar va yozuvlar planda ko'rsatilmasligi ham mumkin.

Sekciyali uylar katta uzunlikka ega va shuning uchun kichik masshtabda chiziladi va sekciya planlari chizmasi bilan to'ldiriladi (5- chizma). 6- chizmada T -1A, 2B, 2B seksiyalar ko'rsatilgan.

Planni quyidagi tartibda chizish tavsiya etiladi:



### 6-chizma

Avval koordinaciya birinchi bo'lib bo'ylama, so'ngra ko'ndalang o'qlar chiziladi. Son jihatdan ko'p holatlarda gorizontal yo'nalish arab sonlarida 1,2,3,4,... belgilanadi, ikkinchi yo'nalish esa rus alfaviti harflari A, B, V, .... va boshqalar qo'yiladi. Markirovka qilinadigan aylanachalar (diametri 6-12 mm) chapdan o'ngga va pastdan yuqoriga qarab joylashtiriladi (6-chizma).

Ingichka chiziq (0,3-0,4 mm qalinlik) yordamida bo'ylama va ko'ndalang, tashqi va ichki asosiy devorlar, hamda kolonnalar chiziladi. Ular koordinacion o'qlarga bog'lanadi.

#### *Yordamchi devor konturlari chiziladi.*

Eshik va deraza o'rnlari belgilanadi. Asosiy va yordamchi devor konturlari kerakli qalinlikda chiziladi.

Kolonna, yuk ko'taruvchi devorlar, yordamchi devorlarga nisbatan yo'g'onroq chiziladi. Zinapoya, sanitary texnik va boshqa jihozlarning shartli belgilari, shuningdek eshiklarning ochilish yo'nalishi ko'rsatiladi.

Chiqish, o'lcham chiziqlari va markirovka aylanachalari chiziladi.

Kerakli o'lchamlar, o'q va boshqa elementlar markalari qo'yiladi. Plan gabaritida xona o'lchamlari, devor qalinligi va o'qlarga bog'lanishlar ko'rsatiladi.

Kerakli yozuvlar bajariladi. Qirquvchi tekislik belgilanadi. Qavat plani chizmasi, konstruktiv elementlar specifikasiyasi, xona eksplikasiyasi, xonalarni hoshiyalash vedomosti bilan birga bajariladi (7- chizma).

### **A) ESHIK DERAZALAR UCHUN QOLDIRILGAN TESHIK JADVALIMI TO’LDIRISH NAMUNASI**

<b>MARKASI, POZ.</b>	<b>TERILGAN G’ISHTDAGI TESHIK O’LCHAMI</b>
1	3600 x 3600
2	1510 x 2370
3	1010 x 2070
4	810 x 2070

### **B) XONANI SAYQALLASH JADVALI**

Xona raqami	XONA NOMI	POLLAR		XONA SHIFTI		XONA DEVORLARI	
		Maydon $m^2$	Sayqallash usuli	Maydon $m^2$	Sayqallash usuli	Maydon $m^2$	Sayqallash usuli
1.	Yashaydigan xonalar	99,24	Taxta		Oqlash		Oboy yopishtirish
2.	Oshxona	19,80	Linoleum				PXV rangbo’yoq
3.	Cho’miladigan xona	7,70	Keramik		PXV rangbo’yoq		hq1,8 yoqori keramika
4.	Hojatxona	3,52	Keramik				PXV rangbo’yoq
5.	Kirish	14,40	Taxta		Oqlash		
6.	Ombor, xoll	7,72	Linoleum				
	Deraza va eshiklar	Ikki marta yog’li rang bo’yoq bilan bo'yash					

**A) XONALAR EKSPLIKASIYASI**

PLAN BO'YICHA RAQAM	NOMI	MAYDONI $m^2$	YONG'IN XAVFSIZLIGI BO'YICHA KATEGORIYASI

**B) XONALARNI CAYQALLASH JADVALI MAYDONI  $m^2$**

NOMI YOKI XONA NOMERI	SHIFT	DEVORLAR	DEVOR PASTI	.....	IZOH

**V) ESHIK VA DARVOZALAR JADVALI**

MARKASI, POZISIYASI	TERILGAN G'ISHTDAGI TESHIK O'LCHAMLARI

**G) PEREMICHKALAR JADVALI**

MARKASI, POZISIYASI	KESIMLAR SXEMASI